

		mas’uliyat, hurmat	
Hospitality / Mehmondo‘stlik	Xushmuomalik, qulaylik, servis	Saxovat, samimiy kutib olish, ijtimoiy burch	Odob ↔ qadriyatli marosim
Honor / Or / Sha’n	Shaxsiy etik prinsip, obro‘	Nomus, ijtimoiy hurmat, oila sha’ni	Individual etik me’yor ↔ jamoaviy baholash

Xulosa. Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi madaniy konseptlar umumiy insoniy tajribani ifodalasada, ularning mazmuniy markazi, baholovchi qatlami va kommunikativ vazifasi bir xil emas. Konseptlarni qiyoslash jarayonida til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi yanada ravshanlashadi: har bir konsept milliy tajriba, tarixiy xotira, ijtimoiy me’yor va mental modelni o‘zida jamlaydi. Natijada ushbu tadqiqot konsept tahlili tarjimashunoslik, interkultural muloqot va chet tilini o‘qitishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Kelgusida tadqiqotni kengaytirish maqsadida respect/hurmat, freedom/erkinlik, modesty/kamtarlik kabi boshqa konseptlarni ham korpus va diskurs materiallari asosida chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wierzbicka A. *Understanding Cultures through Their Key Words* // New York: Oxford University Press, 1997.
2. Maslova, V. A. *Lingvokulturologiya*. Moskva: Akademiya, 2001. Safarov Sh. *Pragmalingvistika asoslari* // Toshkent: Fan, 2008.
3. Safarov, Sh. *Pragmalingvistika asoslari*. Toshkent, 2008.
4. Nurmonov A. *Til va jamiyat* // Toshkent: Fan, 2013.
5. Abdurahmonova Z. O‘zbek tili konseptologiyasida axloqiy qadriyatlar ifodasi // *Filologiya masalalari* // Toshkent, 2020.
6. O‘zbek xalq maqollari va og‘zaki nutq materiallari asosida muallif tomonidan olib borilgan qiyosiy tahlil.
7. Abdurahmonova Z. O‘zbek tili konseptologiyasida axloqiy qadriyatlar ifodasi // *Filologiya masalalari* // Toshkent, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI LUG‘ATINI O‘RGATISHDA TPR, AUDIO-VIZUAL VA GAMIFICATION METODLARIDAN FOYDALANISH

Nafisa S.Soyibjonova

7-umum ta’lim maktabi ingliz tili o’qituvchisi

Namangan, Uzbekistan soyibjonovanafisa01@gmail.com

Abstract. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilidagi lug‘at yodlashdagi zamonaviy, shu bilan birga, samarali hisoblanayotgan quyidagi 3ta metod: TPR (Total Physical Response), Audio-Vizual va Gamification metodlaridan foydalanishning dolzarbligi keltirilgan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o‘rganiladi. Bugungi kunda yosh o‘rganuvchilarning kognitiv va psixofiziologik holati inobatga olinib, shunchaki, lug‘at yodalash metodi samarasiz bo‘lgan holda dars jarayonida turli harakatli o‘yinlar, multimedia vositalari orqali namoyish etiladigan audio-vizual vositalar va o‘yinlar metodlarini o‘zaro integratsiya qilinib dars o‘tiishi samarasorlikni sezilarli oshirishi asoslab berilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yuqoridagi metodlarning integrative usuli bolalarda so‘z yodlashning 40% gacha oshganini ko‘rsatdi, ya’ni bu oddiy so‘z yodlashdan ko‘ra samarali ekanini ko‘rsatadi. Maqola yakunida boshlang‘ich sinflarda til o‘rgatuvchi o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ingliz tili, lug‘at boyligi, TPR, o‘yinlashtirish, audio-vizual metodlar, adabiyotlar tahlili.

Abstract. This article examines the relevance of the following three modern and effective methods for vocabulary memorization in English among primary school students — TPR (Total Physical Response), Audio-Visual, and Gamification methods — based on an analysis of scientific literature. Considering the cognitive and psychophysiological condition of young learners today, it is substantiated that simply memorizing vocabulary proves ineffective, whereas integrating various movement-based games, audio-visual tools demonstrated through multimedia means, and game-based methods into the learning process significantly increases efficiency. The analyses showed that the integrative use of the above-mentioned methods increased word retention in children by up to 40%, demonstrating that it is more effective than rote memorization alone. At the conclusion of the article, practical recommendations are provided for language teachers in primary school grades.

Keywords: primary education, English language, vocabulary, TPR, gamification, audio-visual methods, literature review.

Аннотация. В данной статье на основе анализа научной литературы исследуется актуальность применения следующих трёх современных и эффективных методов запоминания лексики по английскому языку у учащихся начальных классов: метода TPR (Total Physical Response — полная физическая реакция), аудиовизуального метода и метода геймификации. С учётом когнитивного и психофизиологического состояния юных обучающихся обосновывается, что простое заучивание слов оказывается малоэффективным, тогда как интеграция в учебный

процесс различных подвижных игр, аудиовизуальных средств, демонстрируемых с помощью мультимедийных технологий, и игровых методов в совокупности существенно повышает результативность обучения. Проведённый анализ показал, что интегративное использование вышеуказанных методов увеличивает запоминание слов детьми до 40%, что свидетельствует о его большей эффективности по сравнению с механическим заучиванием. В заключении статьи даны практические рекомендации для учителей иностранного языка в начальных классах.

Ключевые слова: начальное образование, английский язык, словарный запас, TPR, геймификация, аудиовизуальные методы, обзор литературы.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘rgatish ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Biroq, yosh o‘quvchilarning (Young Learners) kognitiv xususiyatlari, ya‘ni diqqatning qisqaligi va mexanik yodlashga moyilligi o‘qituvchilardan maxsus yondashuvni talab etadi (Cameron, 2021). Ko‘plab tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, an‘anaviy "lug‘at-tarjima" usuli bolalarda tilga nisbatan qiziqishni so‘ndirishi mumkin. Shuning uchun, so‘nggi yillarda o‘yinlashtirish (Gamification), Total Physical Response (TPR) va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi metodlar keng muhokama qilinmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi — boshlang‘ich sinflarda lug‘at boyligini oshirishda eng samarali deb topilgan zamonaviy metodlarni ilmiy manbalar asosida tahlil qilish va ularning amaliy ahamiyatini yoritishdan iborat.

Metodlar. Ushbu bo‘limda Google scholar va ResearchGate bazalaridan "Teaching English to young learners", "TRP method", "Gamification " "Audio-visual aids" kalit so‘zlari orqali 2016-2025- yillar oralig‘idagi 30dan ortiq maqolalar quyidagi mezonlar: faqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari(6-11yosh) ga qaratilganligi; oxirgi 10 yillikda yozilganligi; ingliz tili lug‘at boyligini oshirish metodikalari yoritilganligi va nufuzli ilmiy manba bo‘lishi asosida 10ta maqolani tanlab olib ,tahlil qilindi.

Muhokama.

<i>Method</i>	<i>Primary goal</i>	<i>Target age (Yosh)</i>	<i>Effectiveness</i>
TPR	Jismoniy faollik orqali eslab qolish	6-8	Juda yuqori kinestetik xotira

Audio-visual	Talaffuz va eshitishni yaxshilash	7-11	Yuqori psixologik qiziqish
Gamification	Raqobat va motivatsiyani oshirish	6-11	O‘rta - yuqori kontekstual idrok

Yuqorida ko‘rsatilganidek TPR metodi 6-8 yoshli bolalarda yuqori darajada harakatlar orqali kinestetik xotira kuzatilgan bo‘lsa, audio-vizual metod tufayli 7-11 yoshli bolalar o‘rtasida ingliz tilidagi so‘zlarni eshitish va talaffuz yaxshilanish doirasida til o‘rganishga yuqori psixologik qiziqish qayd etilgan. Shuningdek, Gamification metodi orqali raqobat va motivatsiyani oshirish maqsad qilingan holda kontekstual idrok kuzatilgan.

Shu o‘rinda aytish joizki, "o‘yinlar bolalarning so‘z boyligini oshiradi" (Ivanov,2021), chunki, bolalar boshlang‘ich sinflarda o‘yin faoliyatida bo‘ladilar va ularning diqqatini maksimum 10 daqiqaga qarata olish mumkin,xolos." TPR metodi-buyruqlar, nutq va harakatni birlashtirgan metod"(Bipa,2021-2025). Zero, bu metod using asoschisi James Asher aytganidek, " o‘rganuvchining o‘z Ona tilisini o‘rganishi ustiga qurilgan"(J.J.Asher, British Council information), chunki, bola hali tilni anglamasdanoq ota-onasining " Oyingga kel", " menga olib kel" kabi buyruqlarini o‘zlari ko‘rsatish asnosida harakatlarni o‘rgatib qo‘yadilar, bora-bora bola kutilmaganda anglagan so‘zlarini o‘zi ham aytishni boshlaydi. Shunday qilib, harakat orqali so‘zning lug‘aviy ma‘nosini anglash ancha samarali demakdir. Mavzuga qo‘shimcha tarzda shuni aytish joizki, Gamification metodi ham anchagina dolzarb, chunki, o‘quvchi o‘yinlarga qiziqib yangi so‘zlarni beixtiyor o‘rganadi, "o‘yinlar o‘rganuvchilar o‘rtasida do‘stona raqobatni shakllantirib, ularni qiziqishi va motivatsiyasini ushlab turadi"(G.Umarova, 2018). Qo‘shimcha qilib aytganda, multimedia vositalari orqali yosh o‘rganuvchilarga ingliz tilidagi yangi so‘zlarni o‘rganish nisbatan qulay, Arndt va Woore(2018) ga ko‘ra, YouTube dagi bolalarga mo‘ljallangan kontentlar orqali til o‘rganish birmuncha oson, qulay va samaraliroq Boshlang‘ich sinflarga chet tilini o‘qituvchi sifatida ayta olamanki, tanlab olingan 15 kishilik 3ta sinfdagi o‘tkazgan tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, 2ta sinfdagi jami 30 kishida yuqoridagi 3ta metodni integrativ usulda qo‘llanilib, natijada 80% ga erishdik, so‘zlarni shunchaki yod olgan 3-sinfdagi esa natija 40% ni ko‘rsatdi, umumiy o‘rtacha samardorlik 40% ga o‘sganini payqash qiyin emas. Demak, 3ta metodning integratsiya qilingan holatdagi dars yuqori samaradorlikka ega.

Tavsiya sifatida ayta olamanki, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda dars boshida kirish qismida multimedia (rang-barang

ashulalar, bolalar uchun YouTube kids kontentlari)dan foydalanib, darsni kinestetik o‘yinlar bilan berib, oxirida yangi so‘zlarni o‘yinlar("Simon says","Guess what..","An information gap"activities) kabi sog‘lom raqobatni shakllantiruvchi qiziqarli o‘yinlar bilan tashkilshtirish birmuncha aqlliyoq yechim bo‘ladi.

Xulosa. So‘ngso‘z sifatida aytish joizki, yangi lug‘aviy ma'noga ega bo‘lgan, bolaga hali umuman notanish tildagi ma'lumotlar,so‘zlarni shunchaki, quruq yodlatish ushbu asr bolalari uchun ularning ta'limiga yetarlicha e'tibor bermaslikdir, shunday ekan, ularga qiziqish,motivatsiya, musobaqalashish muhitini yaratuvchi noodatiy, qiziqarli, yangicha zamonaviy yondashuvdagi metodlardan foydalanib dars o‘tmoq juda ham aqlli yechimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Prasetyo, G. P. A., & Sudarsono. (2024). The Application of Total Physical Response (TPR) Method Through Songs to Improve Students' Vocabulary Mastery and Creativity: A Classroom Action Research at The First Grade. *Journal of English Language Teaching and Learning (JELTL)*, 5(2), 145-156.
- 2.Al Mamun, M. A. (2014). Effectiveness of audio-visual aids in language teaching at tertiary level. *Journal of Education and Practice*, 5(19), 11-17.
- 3.Cameron, L. (2021). *Teaching Languages to Young Learners*. Cambridge University Press.
- 4.Nascimento, S. A. G. C., de Souza, C. A., de Oliveira, E. D., Lima, G. S., et al. (2025). Gamification in education: A systematic review of the literature. *Journal of Tertiary Education and Learning*, 3(3), 128–133. doi.org
- 5.Ivanov, V. G. (2021). Gamification in education: threats or new opportunities. *SHS Web of Conferences*, 101, 03009. doi.org
- 6.Arndt, H. L., & Woore, R. (2018). Vocabulary learning from watching YouTube videos and reading blog posts. *Language Learning & Technology*, 22(3), 124–142. doi.org
- 7.Herdi, H., Idris, N. S., & Widia, I. (2025). Effectiveness of Total Physical Response method in vocabulary learning for BIPA learners: A literature review. *Morfai Journal*, 5(5), 2954–2960. doi.org
- 8.J.J.Asher(British Council information)
- 9.Umarova, G. A. (2018). The use of innovative technologies in teaching English. *Academy*, 1(28), 58–60.
- 10.Nuriddinova, F., & Umarkhanova, N. (2021). Using games in a foreign language classroom. *Scientific Progress*, 2(1), 1622–1626.